



ESHITISHIDA NUQSONI BO‘LGAN O‘QUVCHILARINI PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK TAVSIFLARI

G‘aynazarov B.D.

*Andijon qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar instituti
O‘zbek tili, pedagogika va jismoniy madaniyat
kafedrasi katta o‘qituvchisi*

Tayanch so‘zlar: sadoqat, barkamol, dunyoqarashga, tafakkur, intellektual salohiyat, sensor

Ключевые слова: лояльность, совершенство, мировоззрение, мышление, интеллектуальный потенциал, сенсор.

Key words: loyalty, perfection, worldview, thinking, intellectual potential, sensor.

Kirish. Eshitishida muammolari bo‘lgan bolalar kishilik jamiyatigagina xos bo‘lgan ma’naviy boylik va qadriyatlarni psixik jarayonlarining o‘zgacha rivojlanishi oqibatida mustaqil holda egallay olmaydilar. Eshitishning inson hayotidagi o‘rni beqiyosdir. Inson va atrof muhit doimiy o‘zaro aloqada bo‘lib, ushbu aloqadorlik turli xil: ko‘rish, eshitish, teri, ta‘m, hid bilish, harakat analizatorlari orqali amalga oshiriladi. Eshitish analizatori barcha analizatorlar ichida eng ahamiyatlilaridan sanaladi. I.M. Sechenovning fikricha, ko‘pgina insonlarda eshitish sezgilari boshqa barcha sezgilarga nisbatan kuchliroq bo‘ladi. Ya’ni inson atrof-olamni anglashda sezgi a‘zolari ichidan eshitish analizatorini eng ko‘p ishga soladi. [74] Eshitish yordamida atrof olamning turli-tuman tovushlari anglanadi. Quloq insonning tashqi muhit bilan aloqa qilishida vosita bo‘ladigan sezgi a‘zolari (organi)dan biridir.

Eshitish organining vazifasi tovushlarni baland, yuqori va yoqimliga ajratishdan iborat. Tovush muhitning tebranishli harakati. Yuqori tovush jismning tebranish tezligini aniqlash bilan o‘lchanadi va u «Gs»(gers) bilan belgilanadi. Inson qulog‘ining tovushlarni eng sezuvchanlik chegarasi 1000-4000 Gersgachadir.

Eshitish idrokining buzulishi oqibatida insonning boshqalardan ajralib qolishi uning rivojlanishida shu qadar ko‘p muammolarni keltirib chiqaradiki, L.S.Vigotskiy ushbu o‘ziga xos muammolarning yuzaga kelishini o‘zaro bir-biriga tobe bo‘lgan sabablar bilan asoslab beradi: “Ijtimoiy tarbiya nutqning rivojlanmaganligiga, nutqning rivojlanmasligi jamoa (kollektiv)dan ajralib qolishga, jamoa(kollektiv)dan ajralib qolish esa bir vaqtning o‘zida ham ijtimoiy tarbiyani, ham nutq rivojlanishini tormozlaydi”. [50]

Zaif eshituvchi bolada inson uchun o‘ta zarur bo‘lgan analizator-eshitish faoliyatining to‘liq emas, qisman buzilishi yuzaga kelgan. Ushbu meyordan chetga chiqish nutqning biroz shakllanishigagina imkon beradi: bola atrofdegilar nutqini qanday eshitsa, shunday o‘zlashtiradi. Zaif eshituvchi bolaning nutqi rivojlana olmasdan qolmay, balki buzilgandir ham.

Surdopedagogika tarixiga nazar tashlasak, turli davrlarda eshitishida muammolari bo‘lgan bolalarni tadqiqot obyekti sifatida o‘rgangan pedagog va olimlar ular orasida u yoki bu holda murojaat etilgan. (J.Kardano, V.I.Fleri, J.Itar,). Eshitishida qisman nuqsonlari bo‘lgan bolalarni kuzatgan pedagoglar ularning u yoki bu murojaat etilgan .Eshitishida muammolari bo‘lgan bolalar sensor rivojlanish masalalari bir necha asrlar mobaynida ko‘plab o‘qituvchi va metodistlarining e‘tiborini jalb qilganiga qaramay, eshitishida muammolari bo‘lgan bolalar sensor rivojlanish holatlari, uni meyorga tenglashtirish yo‘llarini ilmiy asoslagan ishlab chiqish, zamonaviy surdopedagogikaning, ya‘ni maxsus maktablardagi ta‘lim – tarbiya jarayonini tashkil etish bo‘yicha yondoshuvlarning yangi yo‘nalish olishiga o‘zining qoldirgan boy ilmiy merosi bilan ushbu kunda ham ilm ahlini lol qoldirayotgan L.S.Vigotskiy tomonidan maxsus ta‘lim tizimi masalarini yoritib bergan qator asarlar turki berdi. Olimning 1938 yilda Moskvada bo‘lib o‘tgan kar bolalar maktablari o‘qituvchilari anjumanida qilgan ma‘ruzasi maxsus muassasalar ishini tubdan isloh qilish, uni hayotga yaqinlashtirish g‘oyalari bilan yo‘g‘riltirilgan “Jismoniy kamchiligi bor bolalarni tarbiyalash tamoyillari” nomli maqolasi (1924 y.)da asosida olib borildi. [50] L.S.Vigotskiy anjuman ishtirokchilari e‘tiborini maqola e‘lon qilingandan keyin o‘tgan davr mobaynida rivojlanishida muammolari bo‘lgan bolalarning ta‘lim-tarbiyasi jarayonida uncha katta o‘zgarishlar yuz bermagani, uning hamon meyorda rivojlanayotgan bolalarning ta‘lim va tarbiyasiga mos holda olib borilmayotgani, shu sababli ushbu kunga qadar ham maxsus muassasalardagi ta‘lim-tarbiya ishlari yetarli darajada samara bermayotgani haqidagi dalillarga qaratdi. U o‘zining qator maqolalari asosida olib borgan ushbu ma‘ruzasida maxsus maktablarda ta‘lim-tarbiyaning asosiy masalasi sifatida uning meyorda rivojlanayotgan bolalar ijtimoiy tarbiyasining



umumiy tamoyillari va uslublari bilan yaqin aloqasini qo‘yadi. Uning fikricha, maxsus maktablarni yangi asosda qayta qurishga yo‘naltirilgan katta ijodiy ish olib borish lozim. “Biz bu ishning asosiy yo‘nalishlarini yoki, aniqroq qilib aytganda, yo‘nalish nuqtalarini belgilab olishimiz kerak”, - deydi u.

L.V.Vigotskiy rivojlanishida muammolari bo‘lgan bolalarga mo‘ljallangan maxsus pedagogikani ijtimoiy tarbiyaning umumiy tamoyil va usullari bilan bog‘lash, maxsus pedagogikani umumiy pedagogika bilan uzviy bog‘lash imkonini beradigan tizimni topish maxsus maktabning bosh vazifasi ekanini ta’kidlaydi.

O‘zining barcha imtiyozli tomonlariga qaramay, maxsus maktabga xos bo‘lgan eng katta-asosiy kamchiliklar bu ularning o‘z tarbiyalanuvchisini nonutqiy bo‘lmagan sharoitlar bilan tashkil etilgan jamoaning tor doirasi bilan cheklab qo‘yishida, deb hisoblaydi. Bu yerda atrofdagi hayotdan ajralgan, cheklangan kichik olam yaratiladiki, unda hamma narsa bolaning kamchiligi hisobga olingan holda rejalashtirilgan va moslashtirilgan, hamma narsa uning diqqatini o‘z jismoniy kamchiligiga qaratadi hamda uni haqiqiy hayotga to‘laqonli moslashtirmaydi. Shunday ekan, bolani alohida kichik olamdan chiqarish maxsus maktabning bosh vazifasi bo‘lmog‘i lozim.

Bolalarni bunday ajratishda maktab ular uchun qat’iy rejalashtirilgan hayot tarzini yaratadi va ularning o‘ziga xos xulq-atvorini shakllantiradi. Maktab-internatdan tashqaridagi hayot haqida esa bolalar cheklangan bilimga ega bo‘ladilar. Olimning fikricha, ular asosan o‘z kamchiliklarini uncha sezmaganda holda o‘zlarining yasama olamlarida kun kechiradilar. Shuning uchun, masalan, eshitishda nuqsoni bor bolalar sensor tarbiyaning rivojlantirishga uncha katta ehtiyoj sezmaydilar. Natijada eshitishda nuqsoni bor bolalarning sensorikasini rivojlantirishga qaratilgan hatto juda yaxshi rejalashtirilgan ish ham talabdagi natijani bermaydi.

Eshitishda nuqsoni bo‘lgan tayyorlov va 1- sinf o‘quvchilarini sensor rivojlantirish texnologiyasi 3 blokdan tashkil topgan:

1. Rang
2. Shakl
3. Sonlarni o‘zlashtirish uchun tayyorganlik

Xar bir blok o‘zlashtirish ketma-ketligi, qo‘llaniladigan usullar, ushbu usullar bo‘yicha o‘yinlar, materialni kun davomida mustahkamlash kabi bo‘limlar yoritilgan.

RANG

Bolalarni quyidagi ranglar bilan tanishtiriladi:

1. Qizil-ko‘k-sariq

2. Zangor: to‘q zangor, och zangor, och zangor;
3. Qora-kulrang-oq;
4. Oshqovoqrang-jigarrang;

Usul. Qizil-sariq-ko‘k ranglari bilan tanishtiriladi. Farqlash-nomlash-sistemalashtirish kabi usullar qo‘llaniladi.

Jihozlar: 10ta qizil, 10ta ko‘k yoki 10 ta sariq piramidka o‘yinchoq‘ining aylanalari, aylanalari ranggi bir xil bo‘lishi kerak faqat katta kichikligi bilan farqlanishi kerak.

Tasniflash uchun o‘yin

Huddi shu rangdagi predmetni top

Bolalar juftini hosil qiladilar. o‘qituvchi har bir juft bolaga qizil, sariq, ko‘k rangdagi kartochkalar tarqatadi. O‘qituvchi har bir qog‘ozdagi yasvirni qanday rangdaligini aniqlab har xil rangdagi piramidkalar aralashmasi turgan stol oldiga yaqinlashadilar. Qog‘ozida qizil rang tasvirlangan bolalar qizil rangli piramida aylanalarni, qog‘ozida ko‘k rang tasvirlangan bolalar ko‘k rangli piramida aylanalarni tanlaydi. O‘yin oxirida bolalar barcha rangdagi aylanalarni (to‘rtburchaklar, uchburchaklar, kublar) birlashtirib parovoz holatiga keltiradi va har bir vagonchasni alohida ranggiga urg‘u bergan holatda aytib o‘tadi va mustahkamlaydi.

Nomlash uchun o‘yinlar

Predmetning rangini ayt

Bola (yoki o‘qituvchi) qo‘liga (qizil, ko‘k, yoki sariq) rangdagi tayoqcha yoki koptokchani ikkala qo‘lidan biriga yashiradi bolalarga bu predmetlar uning qaysi qo‘lida ekanligini topishini taklif etadi.

Kiyimni qanday rangda ekanligini top

Bir dona o‘rinni bo‘sh qoldirgan holatda bolalar aylana shakllarda stulchalarga o‘tiradilar. Boshlovchi aytadi: yonimdagi o‘ng tomonda bitta joy bo‘sh, uni qizil kiyimdagi qizcha egallashini hohlayman (yoki, ko‘k ko‘ylakdagi bolacha) egallashini xohlayman.

Kun davomida o‘rganilgan materialning mustahkamlanishi o‘qituvchining ranglar haqida olgan ma‘lumotini mustahkamlash uchun tarbiyachilar bolalarning kun davomidagi faoliyatini har xil o‘yinlar tarzida olib borish kerak.

Bu faoliyatni qanday va qachon olib borish kerak? Bu masalani quyida keltirilgan va ta‘limning boshqa bosqichlarida ham qo‘llash mumkin bo‘lgan o‘yin va mashqlar yordam beradi. Asosiysi – bolalarning rangga bo‘lgan diqqatini oshirish. Bolalarni kitobdagi rasmlar bilan tanishtirishda tarbiyachi asosan o‘rganilayotgan rangga asoslangan rasmlar kitoblarni tanlashi kerak.



Pedagog bolalar bilan rasmi kitoblarni ko‘rib chiqadi va o‘rganadi. Tarbiyachi bolalar bilan muloqoti davomida bolalarga o‘zlari yoqtirgan ranglarini aytishni taklif qiladi. Rasm chizish davomida tarbiyachi bolalarga berilgan ranglar asosida (ko‘k, qizil, rariq) ranglardan foydalanishini taklif etadi. Qo‘l mehnati asosida narsalar yasash davomida ham bolalar tarbiyachi tavsiya etgan rangli qog‘ozlardan (qizil, ko‘k, sariq) lardan foydalanadi.

Xulosa qilib aytganda, ta‘limiy tajriba-sinovning mazmuni va metodikasini ishlab chiqishda eshitishida kamchiligiga ega bo‘lgan tayyorlov sinf bolalarning ta‘lim-tarbiyasida o‘quv reja, dasturlar tayyorlov sinfda ”Ilk qadam” maktabgacha ta‘lim muassasasi davlat o‘quv dasturiga tayanildi va 1 sinfda esa “Elementar matematika”, “Tevarak atrof bilan tanishtirish, “Nutq o‘stirish”, “Tasviriy san‘at” darslar mazmuniga sensor tarbiya ishlanmalari kiritildi va texnologiyamizning 3 bloki bo‘yicha ulardagi mavzular takomillashtirildi.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta‘lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2020 yil 6 noyabrdagi PF-6108-sonli Farmoni. <https://lex.uz/docs/5085999>
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2017 — 2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar Strategiyasini “Yoshlarni qo‘llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili”da amalga oshirishga oid Davlat Dasturi to‘g‘risida”gi 2021 yil 3 fevraldagi PF-6155-sonli Farmoni. <https://lex.uz/docs/5260791>
3. Kukushkina O.I. Ispolzovaniye informatsionnix texnologiy v razlichnix oblasti spetsialnogo obrazovaniya // Avtoreferat dissertatsii. Moskva, 2005 g. - 58 s.
4. Gaynutdinov X.M. Proforiyentatsionnaya i sotsialnaya adaptatsiya vipusnikov shkol gluxix v usloviyax Uzbekistana.: Avtoref.dis...kand. ped. nauk. – M.: NIID APN. 1990.

РЕЗЮМЕ

Ta‘lim respublikamizni ijtimoiy taraqqiyotida ustuvor deb e‘lon qilingan, demak O‘zbekistonimizning kelgusi rivojlanishiga o‘zining munosib hissasini qo‘sha oladigan har tomonlama yetuk, barkamol insonni tarbiyalash hozirgi kunning eng muhim vazifasi sanaladi.

РЕЗЮМЕ

Образование объявлено приоритетом социального развития нашей республики, а это значит, что важнейшей задачей современности является воспитание всесторонне зрелой и всесторонне развитой личности, способной внести достойный вклад в будущее развитие. Узбекистана.

SUMMARY

Education has been declared a priority for the social development of our republic, which means that the most important task of our time is the education of a fully mature and comprehensively developed personality capable of making a worthy contribution to future development. Uzbekistan.